

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рахимова Ғўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Ғўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Собитов Ўлмасбой Тожахмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнора Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/2 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 181 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Beknazarova G.J. Qishloq xo'jaligi tashkilotlari faoliyatini rejalashtirishda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish	5
Berdiyev G'I., Malikova S.T. Economic growth: a comprehensive analysis of its significance and determinants	8
Boboxojayev B.N. Barqaror iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarini oshirish hamda xarajatlarini kamaytirishga ta'sir etuvchi omillar	11
Butunov Sh. Financial analysis of enterprise activity in conditions of economic instability	15
Daniyarov O.M. Asosiy vositalar (BHXS16) amaliyotga joriy etish masalalari	18
Ergasheva D.A. Directions for improving the mechanism of activating innovations in the field of tourism	21
Fayziyeva Sh.Sh. O'zbekistonda meva-sabzavot kooperatsiyalari faoliyatida iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlari	25
Hasanova Yu.M. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda huquqiy meyorlarining ahamiyati	28
Ikramova M.A. Turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini oshirish yo'nalishlari	32
Isaeva N. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishidagi muammo va yechimlar	35
Kuchkarova M.R. Tijorat banklarida kredit risklari va ularni boshqarish	38
Masharipova F. A regional food security assessment model	41
Maxmudov Sh.A. Sanoat korxonalarida risklarni boshqarishni takomillashtirish	45
Mirsodiqov A.T. Qurilish sohasi logistika tizimini takomillashtirish va uni boshqaruvi samaradorligini baholash usullari	48
Parpiboeva L.A. Raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash	52
Qurbonov A.B. Hududlarda agrotadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	55
Raupov B.N. Quyosh energetikasi va undan foydalanish istiqbollari	58
Ravshanov T.G. "Covid-19" pandemiyasi davrida Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Kanada mamlakatlarida turizm sohasini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	60
Raximova Z.M. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari	67
Rofeeva R.Sh. The barriers in the development and diversification of tourism in uzbekistan	72
Saidov X.R. Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizimini takomillashtirish	75
Tillyaxodjaev A.A. Korxonada marketing strategiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar	78
Tirkacheva F.S. O'zbekistonda turizm salohiyatini rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati	83
Umarov I.Yu. Sanoat korxonalarini innovatsion faolligini oshirish muammolari	85
Yorbekova D.M., Ochilova M.T. Processing accounting and accounting information on the basis of economic statistical models	88
Zakimov A.M. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qizilmiyani qayta ishlash orqali agrosanoat integratsiyasining boshqaruv tizimini shakllantirish	91
Zakirova G.Q. Kichik biznes faoliyatida B2B tizimini tashkil etish asoslari	95
Ziyadullayev G.U. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	98
Ачилов М.У. Мева-сабзавотчилик тармоғини ривожланиш истиқболлари	101

hosildorlik esa mos ravishda 215,8 sentnerdan 301,6 sentnerga ortib, umumiy o'sish 140,6 foizni tashkil qilgan. Natijada yetishtirilgan yalpi hosil miqdori 2005 yildagi 2971,6 ming tonna o'rniga 2020 yilda 6650,3 ming tonnani tashkil qilgan va yalpi o'sish 2,2 martadan ortiqni tashkil qilgan.

Meva-sabzavotchilik sohasini takomillashtirish orqali quyidagilarga erishiladi: meva - sabzavotchilik sub'ektlari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi va yirik ishlab chiqarish yuzaga keladi; mahalliy ishlab chiqarish orqali oziq-ovqat xavfsizligi sezilarli darajada ta'minlanadi; meva-sabzavotchilik sub'ektlaridagi texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish orqali zararlilarni moliyaviy sog'lomlashtiriladi.

“Asosiy maqsadlarimizdan biri – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni “o'zbek brendi” nomi bilan olib chiqishdan iborat” [3]. Hozirgi kunda O'zbekiston eksport salohiyatida qishloq xo'jaligining, ayniqsa, meva-sabzavot va uzum mahsulotlarining ahamiyati juda yuqori. Oxirgi paytlarda bu mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha bir qancha imtiyozlar mavjud.

Shu bilan bir qatorda “...sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning etarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud” [1].

Oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash, bandlikni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlanish va o'sishni rag'batlantirish uchun kooperativlar hudud iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadi. Qishloq xo'jaligi kooperativlari qishloq xo'jaligi xarajatlarini, qashshoqlikni kamaytirish, bozorga kirish uchun muhim rol o'ynaydi. Kichik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash a'zolari iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, barqaror qishloq bandligi va iqtisodiga erishish uchun kooperativlarning iqtisodiy va ekologik zarbalarga chidamliligini oshirish uchun ularning xavf-xatarlarini boshqarish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi kooperativlari mahsulot sifati va korxonalar rentabellikni oshirishga imkon beruvchi munosabatlar tizimidir. Milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Uning rivojlanganlik darajasi davrlarning oziq-ovqat xavfsizligini va qishloq hayotining farovonligini belgilab beradi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida kooperativlarning barqaror rivojlanish darajasini sifatli baholash juda dolzarb hisoblanadi. Kooperativlarning barqaror rivojlanishini baholash uslubiyatini takomillashtirish, undagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash, bu muammoni hal qilishda turli xil nuqtai nazar va qarashlarni hisobga olish hamda ularni chuqur tahlil qilish va tizimlashtirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabrda “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4549-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr
4. R.Xakimov, M.Otaqulov, E.Yusupov, M.Yusupov “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti”-T:2004.
5. Husanov R. Dehqon xo'jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. T.: Cho'lpon, 2000. – 103 b.
6. Shirin Fayziyeva, Gulnoza Samiyeva, Shakhribonu Yuldosheva Ensuring food safety in Uzbekistan and its forecasting. BIO Web of Conferences, 010 (2023) *CIBTA-II-2023* <https://doi.org/10.1051/bioconf/20237101072> (Web of Science)

UO'K 338.43

INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY MEYORLARINING AHAMIYATI

Yu.M.Hasanova, katta o'qituvchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada investitsiya muhitini oshirish mohiyati, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotdagi o'rnini.

Kalit so'zlar: *investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiya jozibadorligi, erkin iqtisodiy zona*

Аннотация. В статье анализируются важность улучшения инвестиционного климата, роль иностранных инвестиций в экономике.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, свободная экономическая зона.

Abstract. The article analyzes the importance the investment climate and attractiveness, the role of foreign investments in the economy.

Keywords: investment, investment climate, investment attractiveness, free economic zone.

Kirish. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti investitsiyalarga, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarga bevosita bog'liqdir. Shu munosabat bilan jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakatda qulay va jozibador bo'lgan investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarning investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirish, investitsiya faoliyatini barqaror rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy, moliyaviy-iqtisodiy hamda huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirish, respublikaga jalb qilinayotgan investitsiyalarning ko'lamini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasidagi muammolarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan investitsiyalarga bog'liq bo'lmoqda. Ayniqsa, mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda ham investitsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yilda qabul qilingan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'grisida”gi Farmonida belgilangan 100 ta maqsadning 26-maqsadida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarni ko'rish” belgilab qo'yilgan.

“Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish” mavzusida respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishdan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida” va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi Taraqqiyot Strategiyasi to'grisida”gi farmonlari doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan[1].

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hamda investitsiyalar to'grisidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, shuningdek, hududlarda investitsiya muhitini izchil yaxshilab borish, xorijiy mamlakatlarning ushbu faoliyat bo'yicha huquqiy tartibotlari, ular amal qilishiga asos bo'lgan institutsional normalar va mexanizmlarni bilishni talab etadi. Ma'lumki, jahondagi biron-bir mamlakat xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olmaydi. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy - huquqiy siyosatida ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik bu borada xorijiy sarmoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta'minlashini ham alohida aytib o'tishimiz lozim.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, biznes yuritish shartlarini baholashning jahon amaliyotida umume'tirof etilgan mezonlar tizimini joriy etish va tadbirkorlik faoliyatini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, shu asosda mamlakatning xalqaro reytingini yanada oshirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi uning rivojlanishining har bir bosqichida yuzaga keladigan qator muammolarni hal etish bilan chambarchas bog'liq. Yangi O'zbekistonda investorlar uchun, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilib bu ishlar yanada takomillashtirilmoqda. Mazkur jarayonlarni yanada taraqqiy ettirish haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qo'yidagicha ta'kidlab o'tgan edi. “Investitsiya muhitini takomillashtirish tarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya siyosati samarasini oshirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 2022-2026 yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalarini aniqlashtirish, iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish masalalari diqqat e'tiborida. Shu asosda yana

investitsiya faoliyatini amalga oshirishning erkinligi, investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, investitsiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida yagona Investitsiya kodeksini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ham alohida ta'kidlamokchiman"[2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga qo'yilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda investitsion muhit terminiga juda ko'p tushunchalar berilgan. Jumladan, Glagoleva va Beloguralarning fikricha, "mamlakat yoki mintaqaning investitsion muhiti moliyaviy qo'yilmalar jozibadorligi ma'lum darajasini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birgalikda umumlashtirilganidir". Iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya muhiti" tushunchasi ham turlicha talqin etiladi. Iqtisodchi olimlar D.G'ozibekov va T.Qoralievlar tomonidan investitsiya muhiti xususida quyidagi fikrlar bildirilgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi [3]".

Tahlil va natijalar. O'zbekistondagi investitsiya qonunchiligi MDH davlatlarining qonunchilik tizimidagi eng ilg'or qonunchilik bo'lib, u xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston uchun iqtisodiy raqobatbardoshlik muammosi, ayniqsa, jadallashuv bilan bog'liq holda eng muhim muammolardan biri hisoblanadi mamlakatning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, ijobiy sarmoyaviy muhitni yaratish ko'p jihatdan uning yechimiga bog'liq. Xorijiy investorlar respublika hududida qonun hujjatlarida ruxsat etilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda korxonalar tashkil etishlari mumkin. Ma'lumki, xorijiy investorlar uchun mehnat resurslari muhim ahamiyatga ega.

2018–2022 yillardagi ma'lumotlarni tahlil qilganda, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borganini ko'rishimiz mumkin. Agar 2018 yilda mazkur ko'rsatkich 124 trillion 231,3 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillar davomida uning o'sish hajmi 145 trillion 626,2 milliard so'mga oshgan. Ularning minimal qiymati 2018 yilda kuzatilgan va indikatorning maksimal qiymati 2022 yilda 269 trillion 857,5 milliard so'mga teng bo'lgan. Bu investitsiyalar faolligini tavsiflaydi. Ularning o'rtacha qiymati 207 trillion 952,7 milliard so'mni tashkil qilgan.



2018-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi, (milliard so'm)

2023 yilning yanvar–mart oylarida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 56,6 trillion so'm o'zlashtirilgan bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizga o'sganini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sarmoyalar hajmi o'sishining aksariyat qismi 2021–2022 yillarda Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik loyihalar hisobiga to'g'ri kelayotgani kuzatiladi. Shu o'rinda qayd etish joiz, mamlakatimizdagi qulay biznes muhiti samarasida so'nggi yillarda chet el korxonalari 5 mingtadan 16 mingtaga yetdi. Har bir tuman va shaharga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Eksport qiluvchi korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 tagacha ko'paydi. Xorijga yo'llanayotgan mahsulot turlari ham 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtagacha oshib, geografiyasi 164 mamlakatni tashkil etdi. Tayyor mahsulot eksporti 2 barobarga, ularning tovarlar eksportidagi ulushi 50 foizdan 65 foizga oshdi.

O'zbekiston 2022-yilda rekord darajadagi 2,5 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qildi. 2021 yilga nisbatan ularning hajmi 11 foizga oshdi. Rekord ko'rsatkichga erishish asosan qayta investitsiya qilingan daromadlarni ikki baravar oshirish hisobiga mumkin bo'ldi [4]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatida ham ma'lum kamchiliklar mavjud bo'lib, ular iqtisodiyotning va butun mamlakatning o'zini sust rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning va butun mamlakatning o'zini sust rivojlantirishga xizmat qiluvchi muayyan kamchiliklar mavjud. Asosiy kapitalga investitsiyalarning kamligi, investitsion jozibadorlikning yetarli emasligi, xorijiy investitsiyalar dinamikasi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun yetarli emas, investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning aniq mexanizmi mavjud emas, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi mexanizmlar kabi kamchiliklar mavjud. ishlamaydi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning kamligi, investitsion jozibadorlikning yetarli emasligi, xorijiy investitsiyalar dinamikasi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun yetarli emas, investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning aniq mexanizmi mavjud emas, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi mexanizmlar kabi kamchiliklar mavjud.

Xulosa va takliflar. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, tarmoq va sohalarda amaldagi texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarning to'g'ri va samarali amalga oshirilishi bilan uyg'unlashsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bu, o'z navbatida, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratish bilan ham uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni uzluksiz texnologik va texnik jihatdan yangilash, shuningdek, doimiy ravishda tashqi va ichki zaxiralarni izlash, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish biz uchun asosiy yo'nalish bo'lishi kerak. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, uni yanada yaxshilash va rivojlantirish uchun bizningcha, bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-investitsiyalarni jalb qilish shartlarini kengaytirishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ularning yanada rivojlanishini ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

- raqobatbardosh investitsion bozorni tashkil etish lozim;

-turli investitsiya loyihalarining, qimmatli qog'ozlarning xususiyatlari to'g'risida axborot ta'minoti bazasini yaratish va bu axborotlarning keng investorlar ommasiga e'lon qilish imkoniyatlarini rivojlantirish;

-davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmidan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. 2022-y. Toshkent. qonun hujjatiga mos

2.Об утверждении Стратегии инвестиционной политики Республики Узбекистан до 2025 года. <http://invest-in-uzbekistan.org/novosti-uzbekistana/obutverzhdenii-strategii-investitsionnoj-politiki-respubliki-uzbekistan-do-2025-g.>

3.G'ozibekov D.G'., Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: TMI, 1993. – B. 46.

4. www.spot.uz

5.Zayniddinov R. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” elektron jurnali. 5, 2020. 90-101 b.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№4/2 (113)
2024 й., апрель**

Ўзбекча матн муҳаррири:	Рўзметов Дилшод
Русча матн муҳаррири:	Ҳасанов Шодлик
Инглизча матн муҳаррири:	Ҳамраев Нурбек, Ламерс Жон
Мусахҳих:	Ўрозбоев Абдулла
Техник муҳаррир:	Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.04.2024
Босишга рухсат этилди: 15.04.2024.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 10,0 б.т. Буюртма: № 4-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18